

YOSHLAR TAFAKKURIDA HARBIY QAHRAMONLIK IDEALLARINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM-TARBIYANING ISTIQBOLDAGI VAZIFALARI

Pulatov Baxodir Abduraupovich

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti

Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i dotsent

Abdulazizov Alyorjon Dilmurod o'g'li

Mamadaminov Temurbek G'ayratbek o'g'li

Turg'unov Diyorbek Nosirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik idealini shakllantirish, harbiy qahramonlarning vatanpavarligi, sadoqativa fidoyiligi, namuna bo'lish sifatlarini yoshlarga singdirish hamda «harbiy qahramonlik ideali»ni shakllantirishning falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-ma'naviy ta'sir mexanizmlarini ishlab chiqish, qahramonlik ideali portretini yaratish asosida tarixiy ideallik qiyofasini yaratish, shu asosida ijtimoiy barqarorlikni shakllantirish omillari haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, qahramonlik, ideal, ta'lim tarbiya, demokratik, tarixiy, vatan himoyasi - imon belgisi, buyuk ajdodimiz, fazilatlar, ideallariga intilish ruhida tarbiyalash.

Bugungi kunda dunyoda «tinchlik» degan so'z va, «osoyishtalik» degan tushuncha g'oyat omonat bo'lib qolganiga, bu borada kechagi vaziyat, kechagi tahlil va prognozlar bugunga to'g'ri kelmayotgani jamiyatda jangavorlik ruhini rivojlantirish zaruratga aylantirmoqda. So'ngi yillarda yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi. Misol uchun, harbiy soha hizmatchilarida va askarlarda jangavorlik ko'nikmalarini, mas'uliyatini rivojlantirish maqsadida turli harbiy-sportmusobaqalari, ko'rik-tanlovlar o'tkazilmoqda. «Mustaqillik», «Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta'sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda jangavorlik ruhini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik liseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirish orqali bo'lajak kadrlarda harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat. Bu borada davlat siyosati darajasida ham ko'plab ishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, «dunyodagi eng

yuksak standartlar darajasida tashkil etilgan uzluksiz harbiy ta'lim tizimi izchil rivojlanmoqda. Hozirgi paytda yangitdan tuzilgan, mohiyat e'tibori bilan noyob bo'lgan Axborot-kommunikasiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti mamlakatimizning zamonaviy oliy ta'lim muassasalari qatoridan munosib joy egalladi». Harbiy ta'lim-tarbiya murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, uni amalga oshirishning an'anaviy, zamonaviy uslub va vositalari mavjuddir. Harbiy tizim doirasida ta'lim-tarbiyaning turlari ham talaygina bo'lib, ularni bir biridan ajratilgan holatda olib borib bo'lmaydi. Agarda tizim doirasida uning qo'llanishi huquqiy asosiga suyansak, o'ziga xos bir tarzda pedagogik nomuvofiqlik vujudga keladi. Chunki, birinchidan, har qanday tarbiyaviy jarayon buyruq asosida amalga oshiriladi, ikkinchidan, tarbiyaviy jarayonda noan'anaviy usullarni qo'llash uchun hech bir uslubiy va amaliy qo'llanma mavjud emas.

Harbiy talim-tarbiya tizimida yoshlarning jismoniy tayyorgarligini mustahkamlash, jangavorlik ruhiyatini oshirish va taktik tayyorgarlikni rivojlantirishga alohida urg'u berilishi kerak. Chunki harbiylik faoliyatining mazmuni va maqsadi mana shu ko'rsatkichning shakllanganlik darajasi asosida tarkib topadi. Shu sababli, harbiy xizmatchilarni jismoniy tayyorgarligini oshirish ta'lim-tarbiya ishi bo'yicha mas'ullar, ofiserlar oldida turgan ulug'vor, mas'uliyatli vazifa bo'lib qolmoqda. Bugungi kunda, harbiy xizmatchilar o'rtasida jimoniy tayyorgarlik ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ularda ilmiy izlanish, huquqiy savodxonlik, burch va mas'uliyatni chuqur his qilish, poklik, halollik, fidoyilik, mehnatsevarlik, ijodiy tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iymon, insof, diyonat, millatparvarlik, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, sadoqatlilik, shijoat, botirlik singari fazilatlarini shakllantirish lozim. Shuning uchun, harbiy-ma'rifiy yo'nalishda o'tkazilajak mashg'ulotlarda va tadbirlarda ilmiy pedagogika va psixologiya faning yutuqlariga tayangan holda treninglar, ta'limiy suhbat va uchrashuvlar, kechalar va ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish tavsiya etiladi.

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda quyidagilarni chuqur o'rganish va bilish talab etiladi: o'z Vatanini himoya qilishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining Konstitusion burchini bilish; Respublika mudofaasini kelgusida kuchaytirish masalalari bo'yicha Hukumat qarorlari bilan tanishish; O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari bilan hal qilinadigan masalalarni, ularning vazifasi va xususiyatlarini anglash; O'zbekiston Respublikasi «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi, harbiy qasamyod va Umumharbiy Nizom talablarini o'rganish va o'zlashtirish; harbiy, harbiy-texnik bilimlar o'rganishda amaliy ko'nikmalarni hosil qilish va yosh askarni tayyorlash doirasida egallash; o'tgan otabobolarimiz harbiy masalalarga oid an'ana va udumlarini targ'ibot qilish.

Bular nimalardan iborat bo'lishi mumkin?

1. Oiladagi tarbiya. Oila ham bir kichik mamlakat hisoblanadi. Mamlakatni ravnaq topishi uning boshchisi va xalqiga bog'liq bo'lgandek, oilada ham shu talab

saqlanib qolgan. Xalqda bir naql bor, agar farzand yaxshi bir ish qilsa, unga ota-onangga rahmat, deb rag'batlantiriladi. Demak, shu farzand tarbiya topgan oiladagi muhit talabga javob beradi, ota-ona farzandlariga to'g'ri yo'l ko'rsata olgan. Agar, har bir ota-ona har kuni farzandlarini yig'ib, o'n-o'n besh daqiqa Vatanni sevis, Vatanga sidqidildan xizmat qilish, bobolarimizning shonli ishlarini davom ettirishga da'vat qila olsa, ushbu oilada o'sgan farzandlar haqiqiy vatanparvar bo'lib o'sadi. Farzand o'qishda, ko'chada va qolaversa do'stlari orasida iqtisodiy rivojlanish yo'lidagi ba'zi kamchiliklarimizni eshitib, tushunib qolsa, ota-ona o'sha vaqtda, unga bu holatlar vaqtinchalik ekanligini, tez kunlarda bu illatlar batamom yo'q bo'lishini to'g'ri tushuntira olsa, bu oilani, qolaversa farzandlarining kelajakdagi yutug'i hisoblanadi.

2. Mahalladagi tarbiya. «Bir farzandga etti qo'shni ota-ona» degan naql faqat o'zbek millatiga mansubdir. Misol uchun, ilgari, mahalladagi bir bolaning sigareta chekayotgani ko'rib qolinsa, uni bu yo'ldan, kim bo'lishiga qaramasdan qaytarilar edi. Bolaning ota-onasi buni eshitsa, o'sha odamdan minnatdor bo'lardi. O'sha bola qo'rqqanidanmi yoki hurmat qilganidanmi, bu ishini qayta takrorlamas edi. Bugun esa bu hol bir oz kamayganga o'xshaydi, ushbu urf-odatimizni yanada rivojlantirishimiz oldimizda turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, ba'zi ota-onalar bunga loqayd bo'lmoqdalar, kezi kelganda o'sha ota-onalarning farzandlarini to'g'ri yo'lga boshlayotgan, qilayotgan ishlarining noto'g'ri ekanligini tushuntirayotgan insonlar bilan dahanaki urushlargacha borishmoqda. Yurtimizdagi ko'p mahallalar yanada ko'rkamlashib o'ziga chiroy qo'shib bormoqda. U erlarda bo'layotgan obodonchiliklar na faqat yurtdoshlari- mizning, balki chet ellardan kelayotgan mehmonlar va sayyohlarni ham lol qoldirmoqda.

3. Bog'chadagi tarbiya. Tibbiy va psixolog olimlarimizni aytish- lariga qaraganda, bola 5-6 yoshigacha eshitgan, ko'rgan narsalarini tushun- sa-tushunmasa tez ilg'ab olar, uni yodda saqlash qobiliyati o'ta kuchli bo'lar ekan. Ya'ni bolaga nimani o'rgatilsa, nimani ko'rsatilsa shu narsani aytadi va ko'rsatadi. Masalan, xohlagan bog'chaga kirib, tarbiyalanuvchilar- dan «qani bolalar hammamiz birgalikda O'zbekiston Respublikasi mad- hiyasini kuylaymiz», deb so'rasangiz, bolalarni 80-90% sizga tushunmas- dan qarab turadi, agar siz «qani bolalar hammamiz «Serquyoshni» kuylay- miz deb so'rang, ular baravariga O'zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaydi. Chunki bolalarga ko'pchilik hollarda shunday o'rgatilib kelmoqda. Gar shunday ekan, kelajagimiz poydevorini mustahkam qurishimiz har birimizning o'z qo'limizda ekanligini unutmasligimiz, farzandlari- mizga bog'cha yoshidan har bir narsani to'g'ri o'rgatishimiz, tushuntirishi- miz lozim bo'ladi.

4. Maktabdagi tarbiya. Maktab ziyo maskani, bilim o'chog'i, insonning kelajak hayotida kim va qanday bo'lishini ta'minlab beruvchi dargoh hisoblanadi. Insonni vatanparvarlik ruhida ongli tarbiyalash, asosan maktabda amalga oshiriladi. Ushbu

yo'nalishning asoschisi o'qituvchi hisoblanadi. Agar, o'qituvchi astoydil vatanparvar bo'lsa, o'quvchi ham u ko'rsatgan yo'ldan boradi.

5. Harbiy xizmatdagi tarbiya. Harbiy xizmatda vatanparvarlik ruhidagi tarbiya bir oz o'zgacha bo'lib o'z xususiyatlariga egadir. Agar, ikki, biri harbiy, biri esa fuqaro insonlarni yonma-yon qo'ysangiz va ularga ajdodlarimiz va otabobolarimizning Vatan oldidagi qahramonliklari to'g'risida bir xil misol keltirsangiz, fuqaro inson uni o'zgacha tarzda, harbiy inson esa boshqacha tushunadi. Sabab, fuqaro inson urush harakatlari to'g'risida yuzaki fikr va tushunchaga ega bo'lishi mumkin, harbiy inson esa to'la-to'kis ma'lumotlarga ega bo'lib barchasini yuragi bilan his qiladi. Harbiylikni ko'rgan insonning tarbiyasi, dunyoqarashi, madaniyati, insonlarga bo'lgan mehr-oqibat va muomalasi o'zgachadir. Harbiy insonning elkasida na faqat harbiy unvoni, balki atrofidagi yurtdoshlarimizning nazar ko'zlarining yuki ham mavjud. Bu undan katta mas'uliyat talab qiladi. Harbiy inson, agar u vatanparvar bo'lmasa, uning harbiy ligi qolmaydi.

6. Ommaviy-axborot vositalari orqali tarbiya. Hozirgi kunda ommaviy-axborot vositalarda, yoshlarning Vatan tuyg'usi va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Men hozir bu yo'nalishda tashkillashtirilayotgan, hammasi o'z o'rniga ega bo'lgan yuzlab ko'rsatuvlarni sanab o'tmoqchimasman. Balki, oynai jahonda namoyish qilinayotgan, o'zbek kino ustalari tomonidan suratga olinishi zarur bo'lgan tarixiy va zamonaviy badiiy va hujjatli filmlar to'g'risida qisqacha bo'lsa ham o'z fikrlarimni bayon qilmoqchiman. Amir Temur bobomiz to'g'risida faqat yagona film ishlangan, buni ham ko'rganlar bor ko'rmaganlar bor. Buyuk lashkarboshi Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagi kino film hanuzgacha ishlanmagan. Xitoy kinochilari tomonidan ishlab chiqarilgan ko'p serialli «Chingizxon» filmini menimcha hamma ko'rgan. Men birinchi marotaba ko'rganimda o'sha filmda bir epizodi meni lol qoldirgan. Xitoy millatiga mansub kino rejissyori Jaloliddin Manguberdi kim bo'lganini, qaerda tug'ilib, nima ishlar qilganini bilmay, ul zot to'g'risida tarixda qoluvchi lavhani butun dunyoga tarqatdi. Nima bizning o'zbek kinochilarimiz bunday kinolarni olishga noldiyiqmi yoki ssenariy yozuvchilarimizning salohiyatlari etishmaydimi, sabab nima-da, yoki shunday kinolarni olishga mablag' etmaydimi? «Sevdim, o'ldim, so'ldim» lavhali kinolarni o'ntasiga ketgan mablag'ni bitta tarixiy film olishga sarf qilinsa, o'sha foydali bo'lar edi.

Tarbiyaning hayotiyligini ta'minlamasdan turib tarbiya berayotgan yoshlarimizdan, farzandlarimizdan qandaydir najot kutib bo'lmaydi. Faqatgina to'g'ri tarbiyalangan farzandlarimizda Vatanga, ota-onaga, atrofida qilargalarga, muhabbat sadoqat, mehr va oqibat qirralari shakllanadi. Aks holda ulug' allomamiz A.Avloniy ta'kidlaganidek, inson o'zini, oilasini, o'zi yashab turgan jamiyatni halokat yoqasiga olib keladi va kutilmagan falokat yuz beradi. Bu jarayon tarbiyaning hamma yo'nalishida ro'y berishi mumkin. Buni biz axloqiy, iqtisodiy, jismoniy, ayniqsa tibbiy-

gigienik, va ekologik tarbiyalarda ham ko'rishimiz mumkin. Yaqin atrofimizdagi mamlakatlarda bo'layotgan siyosiy, iqtisodiy, tibbiy jarayonlarda ro'y berayotgan falokatlar bunga aniq misol bo'la oladi. Demak, bizning yurtimizda tarbiyaning bugungi taqdiri kecha yaratilib unga juda mukammal poydevor yaratilgan ekan bu bilan biz bugun g'ururlanish bilan bir vaqtda, jamiyatda bugunning ehtiyojlaridan kelib chiqib ana shu ota-bobolarimiz yaratib ketgan tarbiya poydevorining ustida bunyod bo'lgan tarbiya devorini mustahkamlab borishimiz zarur.

Buning uchun mamlakatimizda bugun zamin yaratilgan. Ushbu imkoniyatlardan unumli, samarali foydalanish har birimizning muqaddas burchimiz sanaladi. Xo'sh bugun jamiyatimizda tarbiyaning hayotiyiligini ta'minlash borasida qanday ijtimoiy institutlar bor! Tarbiyaning asosiy o'chog'i kecha ham, bugun ham, ertaga ham – bu oila. O'rta Osiyo xalqlarining, qolaversa o'zbek oilasining bu borada faxrlansa arzigudek tajribalari bor. Sholi kurmaksiz bo'lmaganidek bugun ham bizni tarbiya masalasida qiynayotgan ayrim jihatlari borki, bunga ko'z yumib bo'lmaydi. Sababi har qanday turdagi tarbiya oxir oqibat o'z mahsulini beradi. Bugun yoshlarimiz uchun ta'lim-tarbiya olish manbalari juda ko'p. Ma'lum darajada bu holat chegaralanmagan. Bittagina Internet yoki har xil turdagi to'lqinlarni tutadigan antennali televizorlar orqali, mobil telefonlar, ayniqsa chet tillarini yaxshi tushunadigan yoshlar uchun ma'lumotlar manbasi sanaladi. Har xil kinofilmlarni aytmasa ham bo'ladi. Xo'sh shunday ummoni yo'q ijobiy, ammo baxtga qarshi bizning milliy qadriyatlarimizga batamom yot bo'lgan ma'lumotlardan yoshlarimizni qanday asrashimiz kerak bo'ladi. Buning uchun biz oldin qayd qilgan ijtimoiy institutlar – oila, mahalla, maktabgacha bolalar muassasalari, maktablar, akademik lisey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, boshqa har xil davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. Toshkent: O'zbekiston
2. Ta'lim to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. –Toshkent.: O'zbekiston, 2020 yil 23 sentyabr. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
4. Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasi. BMTning O'zbekiston Respublikasidagi Vakolatxonasi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. Toshkent. 1998. –B. 9.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3160-son "Ma'naviy ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishnin yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida "gi Qarori. // Xalq so'zi. 2017 yil 28 iyu.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi./Xalq so'zi. 2017 yil 13 yanvar.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909 sonli Qarori./ Xalq so'zi. 2017 yil 16 may.
8. Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-innovasion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"24-son Qarori, / Xalq so'zi 2018 yil 13 yanvar.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-sonli Qarori. / Xalq so'zi. 2019 yil 4 may.
10. Mirziyoev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017yil